

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**

Ro‘yxatga olindi:
№ MD-5A120302-
“ ” 201_ yil

Samarqand davlat universiteti
rektori
 I.Xalmuradov
201 yil “ ”

**YANGI VA ENG YANGI DAVR TARIXI TARIXSHUNOSLIGI VA
MANBASHUNOSLIGI: RIVOJLANISHNING ASOSIY YO’NALISHLARI
FANINING**

O‘QUV DASTURI

Bilim sohasi:	100000	–	Gumanitar soha
Ta’lim sohasi:	120000	–	Gumanitar fanlar
Ta’lim yo‘nalishi:	5A120302	–	Tarix (yo‘nalishlar va mamlakatlar bo‘yicha)

Samarqand – 201_

Fan dasturi Samarqand davlat universiteti Tarix fakulteti kengashida ko‘rib chiqilgan va tavsiya qilingan (201_ yil “___” _____dagi “___” -sonli bayonnoma).

Fakultet dekani:

dots. D.M. Djurakulova

Fan dasturi Samarqand davlat universitetida ishlab chiqildi.

Tuzuvchilar:

To‘raqulov B.T. - SamDU Tarix fakulteti, Jahon tarixi kafedrası dotsenti, tarix fanlari nomzodi

Umarov S.Ya. - SamDU Tarix fakulteti, Jahon tarixi kafedrası o‘qituvchisi

Taqrizchilar:

Handamova M. - SamDChTI ijtimoiy fanlar kafedrası dotsenti, tarix fanlari nomzodi

Rahmatullayev M.R. - SamDU Tarix fakulteti, Jahon tarixi kafedrası o‘qituvchisi, t.f.n.

Fanning dasturi Samarqand davlat universiteti o‘quv-uslubiy kengashining 201_ yil “___” _____dagi “___”-son majlis bayoni bilan ma’qullangan.

O‘quv uslubiy Kengash raisi:

prof. A.S. Soleev

I. O'quv fanining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Ushbu dastur yangi va eng yangi davr tarixi tarixshunosligi va manbashunosligi: rivojlanishning asosiy yo'nalishlari bo'yicha tuzilgan bo'lib, Insonparvarlik va Yevropa tarix fanining dastlabki qadamlari, Ingliz inqilobi davrida tarixiy fikr (XVII), XVIII asr fransuz va ingliz ma'rifatchiligining tarixiy qarashlari, XVIII asr nemis ma'rifatchilarining tarixiy qarashlari, XVIII asr Rossiyasi tarixiy tafakkurida rasionalistik g'oyalar va ma'rifatchilik oqimlari, XVIII asr oxiridagi Fransuz inqilobi davrida sosialogik va tarixiy g'oyalarning rivojlanishi, Ispaniya, Eron, Afg'oniston, Osmon imperiyasi va boshqa mamlakatlar tarixshunosligi, yangi va eng yangi davrga oid manbalar va ularni o'rganish masalasi, ularning tasnifi, tuzilishi, manbalarning rivojlanib borishi va jaxon tarixini o'rganishda uning o'rni va ahamiyatini o'rganishga qaratilgan.

Shu bilan birga, yangi va eng yangi davr tarixi tarixshunosligi va manbashunosligi: rivojlanishning asosiy yo'nalishlari fani haqidagi bilimlarni qaror topshirish mavjud ilmiy adbiyotlar va zamonaviy nazariyalar hamda olib borilayotgan tadqiqot ishlarini o'rganish, fan bo'yicha to'plangan ilg'or tajribalar, kadrlar buyurtmachilarining fikr, talab va takliflari kabi masalalarni o'z ichiga qamrab oladi

II. O'quv fanining maqsadi va vazifalari

Fanni o'qitishning maqsadi - yangi va eng yangi davr tarixi tarixshunosligi va manbashunosligi: rivojlanishning asosiy yo'nalishlari fanining predmeti va vazifalari to'g'risida talabalarga umumiy tushuncha berish, yangi va eng yangi davr tarixi tarixshunosligi va manbashunosligi: rivojlanishning asosiy yo'nalishlari fanining vazifasi eng avvalo tarix aniqlovchisi va tarixiy tadqiq usullarini eng qadimgi davrdan hozirgi kunlarga bo'lgan jarayoni va jamiyatning rivojlanishiga qo'shgan hissasi va ahamiyati bilan belgilangan.

Fanni o'qitishning vazifalari - talabalarga yangi va eng yangi davr tarixi tarixshunosligi va manbashunosligi: rivojlanishning asosiy yo'nalishlari fanining umumiy tavsifi, davrlashtirish va xronologiya, insoniyatning keyingi tarixiy rivojlanish bosqichida fan, texnika, madaniyat, axborotlar o'zlashtira borish, ularni tabiiy tanlanish nazoratidan chikishga, jamiyatga bog'lik bo'lishiga olib kelgan xodisalar haqida chuqur bilim berish va o'rgatishdan iborat.

Fan bo'yicha talabalarning bilim, ko'nikma va malakalariga qo'yidagi talablar qo'yiladi. **Magistrant:**

- Yangi va eng yangi davr tarixi tarixshunosligi va manbashunosligi: rivojlanishning asosiy yo'nalishlari fanidan talabalar har bir tarixiy davrda tarixiy tadqiqotlar ko'lami, har bir davrning o'z dolzarb muammosini tadqiqotlarning metodologik asoslari haqida **bilimlarga ega bo'lishi** kerak;

- Yangi va eng yangi davr tarixi tarixshunosligi va manbashunosligi: rivojlanishning asosiy yo'nalishlarining mukammal, rivojlanib borish jarayonlari, tarix fanining alohida fan mavqeiga ega bo'lishi. Klassik va hozirgi davrdagi tarix

fanining dolzarb muammolari, Yevropa Sharq olimlari, manbashunoslarning tarixiy nazariyalari haqida ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak;

- Yangi va eng yangi davr tarixi tarixshunosligi va manbashunosligi: rivojlanishning asosiy yo'nalishlari jahon hamjamiyati tomonidan to'plangan tarixiy tajribani ilmiy va pedagogik amaliyotda samarali qo'llash *malakalariga ega bo'lishi* kerak.

III. Asosiy nazariy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)

Tarixshunoslik va manbashunoslik faniga kirish

Yangi zamon tarixi tushunchasi, uning insoniyat tarixida tutgan o'rni. Tarixshunoslik va manbashunoslik masalalari, ularning jahon tarixini o'rganishdagi ahamiyati. Tarixshunoslikdagi asosiy yo'nalishlar. Davrlanish. Mavjud hujjatlar va adabiyotlar to'g'risida. Manbashunoslikning muhimligi. Manbalar va ular bilan ishlash masalalari. Hujjatlar to'plami, konstitusiyalar, memuar adabiyotlar, matbuot, zamonaviy ruhdagi monografiya va ilmiy maqolalarning yangi zamon tarixini o'rganishdagi o'rni haqida.

Gumanistik tarixiy fikr va tarixshunoslik

Gumanistik Dunyoqarash. Gumanistik tarixshunoslik. Italiya tarixshunosligi. «Ritorik maktab». «Erudit» tanqidiy maktabi. Lorenzo Vala – tarixiy tanqidiylik asoschisi. «Siyosiy maktab». N.Makiavelli, F.Gvichardini. Fransiya, Angliya va Germaniyaning gumanistik tarixshunosligi.

Yangi zamon davrida tarixiy fikr, tarixiy bilimlarning paydo bo'lishi va shakllanishi (XVI-XVIII asrlar)

Tarixiy fikr, G.F.Leybnitsning umumiy tarix nazariyasi, siyosiy tarix, S. fon Pufendorfning tarixiy qarashlari, AQShda tarixiy fikrning qaror topishi, “puritan tarixshunosligi”, Italiya va Ispaniyada tarixiy fikr va tarixshunoslikning rivojlanishi jarayoni.

Ingliz burjua inqilobi davrida ijtimoiy-siyosiy fikrlar (XVII asr)

Inqilob davrida Angliyada jamoatchilik fikri. Livellerlar va digterlarning tarixiy qarashlari. Independentlarning tarixiy konsepsiyasi. Tomas Gobbs. Djejms Garrington. Restavrasiya davrida tarix Fani Jon Lokk va 1688 yilgi bitim.

Fransuz ma'rifatparvarlarining ijtimoiy va tarixiy qarashlari (XVIII asr)

Fransuz ma'rifatparvarlarning ijtimoiy tarixiy qarashlarning G'oyaviy ildizlari. Jan Melye. Bulenvelye, Dyubo va roman-german muammosining shakllanishi. Sharl Lui de Monteskye Mari Fransuv Aruz Volter. Fiziokratlar. A.R. Tyurgo va uning taraqqiyot ta'limoti: komusiy bilim soxiblari – Ensiklopedistlar.

Deni Didro. Klod Adrian Gelvisiy. Pol Anri Golbax. Giyom Reynal. Jan Jak Russo. Gabriel Bonno de mabli.

XVIII asrda Angliya ma'rifatparvarlarining ijtimoiy va tarixiy fikrlari. Shotlandiya maktabi

Ingliz ma'rifatparvarligi. Tarix fani ahvoli. David Yumning tarixiy tushunchalari. Eduard Gibbonning tarixiy qarashlari. Shotland tarixchilari. Adam Smitning tarixiy qarashlari. Ingliz-shotland falsafa-tarix maktabi,

Nemis ma'rifatparvarlarida tarix falsafasi

XVIII asrda Germaniyada tarix fani. Yustus Mezer. Isaak Izelen. Gotgold Efraim Lessing. Iogan Gotfrid Gerler. Immanuil Kant. Fridrix Sheller. iogan Wolfgang Gete. Georg Foster Avgust Lyudvig Shleser.

XVIII asrda rus tarixiy qarashlarining rasionalistik g'oyalari va ma'rifatparvarlik oqimlari

Dvoryan tarixshunosligida rasionalistik G'oyalar. Normann ta'limotining paydo bo'lishi. M.V.Lomonosov, M.M.Sherbatov, I.N.Boltin. Ilk rus tarixchilari ma'rifatparvarlar huquqi. Rus tarixiy qarashlarida inqilobiy oqimning vujudga kelishi. A.N.Radishev.

Fransuz burjua inqilobi davrida ijtimoiy va tarixiy fikr

Inqilobiy kurashning tarixiy ta'limoti va amaliyoti. Antuan Barnov. Konstantin Fransua Volney. Jan Antuan. Kondorse. Jan Pol Marat (Grakx) Babyof va babuvistlar.

Amerika ma'rifatparvarligining xarakterli xususiyatlari

B.Franklin, T.Peynning radikal-demokratik konsepsiyasi, J.adams va J. Medisonning jamiyatni farqlash konsepsiyasi, T.Jefferson va A. Gamiltonning jamiyatni rivojlantirishning ikki yo'li, mustaqillik uchun urush tarixshunosligining paydo bo'lishi, Tarixchi-federalistlar va tarixchi-antifederalistlar ishlari.

XIX asr birinchi yarmida tarixshunoslik. Romantizm

Romantizm jamiyatdagi qarashlarning muhim formasi sifatida, tarixiylikning yanada rivojlanishi, tarixni organik rivojlanish g'oyasi, tarixiy romantizmning yuzaga kelishi, madaniyat tarixiga qiziqishning ortishi, "iqtisodiy romantizm" muammosi.

XIX asr Fransiyada tarixiy fikrlar va tarixiy fanlar taraqqiyoti

Restavrasiya davri tarixshunosligida reaksion-aristokratik romantizm. Monzolyening tarixiy konsepsiyasi. Burjua-liberal maktabi. Ogyusten. Tyerrining tarixiy konsepsiyasi. Gizo konsepsiyasi. XVIII asr fransuz inqilobi tarixi. Stal, Minye, Tyer asarlar. Restavrasiya davrida utopik sosializm va tarixiy fikrlar. 1830

yilgi inqilobning fransuz tarixshunosligi taaqqiyotiga ta'siri. Tokvilning ilk tarixiy asarlari. Lamartin kitobida jirondistlar madxi. Ogyust Kantning «Pozitiv falsafa kursi»ning paydo bo'lishi. Mayda burjuaziya tarixshunosligi. Lui Blanning tarixiy qarashlari. Kaabe va uning «Fransuz inqilobining xalqchil tarixi» asari. Fransuz ma'rifatparvarlarining kommunistik qarashlari. XIX asr 50-60 yillarida fransuz tarix fani. Bonapartcha aksiinqilobi tarixshunoslik va uning tanqidchilari. Burjuadvoryan tarixshunosligi. Fransuz inqilobi tarixshunosligining burjuradikal ko'rinishi. Mayda burjuaziya demokratik tarmoq. Sosialistik ko'rinish. Burjuoliberal ko'rinish. XIX asr oxirida Fransuz tarixshunosligi. Reaksion yo'nalish. Parij kommunasi tarixshunosligi. Fransiya tashqi siyosatining o'rganilishi. A.Sorel, A.Debidur, Fransiya mustamlakachilik bosqini tarixi haqida asarlar. Yevropaning boshqa mamlakatlari tarixi fransuz tarixshunosligida. Sharl Senobos.

XIX asrda Angliyada tarixiy fikrlar va tarix fani

XIX asr oxirida Angliyada Fransuz inqilobiga nisbatan munosabat. Chartistlar va ularning Angliya G'oyaviy hayotiga ta'siri. Ingliz tarixshunosligining asosiy yo'nalishlari. Genri Gallam. Tomas Babington Makoley. Uilyam Kobbet. Tomas Karleyl. Robert Ouen. Tarixchi chartistlar. XIX asr oxirida ingliz tarixshunosligi. Ingliz pozitivizimi. Oksford va Kembridj tarix maktablari. D.R.Grinning «Ingliz xalqining qisqacha tarixi» asari G.T.Bokl. Uilyam Leki. Semyuel Gardiner. Iqtisodiy tarix Arnold Toynbi. Mustamlakachilik siyosati tarixi.

XIX asrda Germaniyada tarixiy fikrlar taraqqiyoti

Nemis mumtoz falsafasi I.G. Fixte. Fridrix Vilgelm Shelzving. Georg Vilgelm. Fridrix Gegel. Reaksion romantizm va uning tarixshunoslikka ta'siri. «Uquq tarix maktabi». Leopold Ranki va uning maktabi. Tarixchilarning Geydelberg maktabi. XIX asr 50-60 yillarida Germaniya tarixshunosligi. Kichikgerman tarix maktabi. Buyukgerman tarix maktabi. Siyosiy iqtisodda «Yangi tarixiy maktabi» o'rni. Katolik yo'nalish. Tarixshunoslikda «Yangi liberalizm» o'rni. K. Lamprext tarix uslubiyati to'g'risida baxs-munozara. Neokonsianlik. Sosial-demokratik yo'nalish.

AQShda tarix fanining shakllanishi. "Ilk maktab"

Amerika romantizmi shakllanishida Yevropa tarixiy bilimlarining kirib kelishi, Amerika va Yevropa romantizmi, Amerika demokratiyasi tamoyillari, G'arb Amerikasi tarixi haqida F. Parkmenning trakti, abolitsionerlar va qulchilikka qarshilar o'rtasida Amerika tarixshunosligidagi qulchilik masalasidagi kurashlar.

XIX asr ikkinchi yarmida tarix fani. Pozitivizm

Pozitivizm falsafasining shakllanishi, uning asosiy tamoyillari, O.Kant pozitivizm asoschisi sifatida, metod va nazariya muammolari, sotsiologiyaning

yuzaga kelishi, evolutsiyalik va obektivlik tamoyillari, tarixiy fikrlarning obektivligi, sotsial-iqtisodiy formatsiyalarni o'rganilishi.

Fransiyada pozitivizm tarixshunosligi

Fransuz pozitivizmining asoslari, I.Tenning madaniy-psixologik metodi va fransuz inqilobi traktati, A.Olarning liberal-respublika maktabi, A.Sorel va A. Debidur asarlarida tashqi siyosat va diplomatiya tarixi, metodik maktab, metodik pozitivizm.

Nemis tarixshunosligi. Kichik german tarixi maktabi

German tarixshunosligida kichik german maktabi va neorankichilikka o'tish, mamlakatni birlashtirishga g'oyaviy tayyorlashda kichik german maktabi tarixchilarining roli, "Tarixiy maktab va siyosiy iqtisod", madaniyat tarixini o'rganishga burilishi, sotsial-demokratik yo'nalish.

Fuqarolar urushi va tiklanish davrida AQSh tarixshunosligi. Pozitivizm

"Ilk maktab"ning qulashi, Amerika pozitivizmning shakllanishi, J.Dreperning geografik determinizmi, AQSh tashqi siyosati tarixining yaratilishi, G.Adamsning diplomatik tarixi va madaniyat tarixi, tarixshunoslikda progress (iqtisodiy) yo'nalishning yuzaga kelishi, Amerika tarixshunosligida sotsialistik yo'nalish.

Milliy birlashuvdan so'ng Italiya tarixshunosligi

Filologik maktabning yetakchilik roli, milliy birlashuv muammolari, mustamlakachilik yo'nalishining qaror topishi, A.Orian asarlarida kolonializm targ'iboti.

1861-yil islohotidan keyin Rossiya tarixshunosligi

Rossiya universitetlarida yangi tarixni o'rgatila boshlanishi, Fransiya va Germaniya tarixi muammolari, sotsial-iqtisodiy yo'nalishning yuzaga kelishi, "rus maktabi" va XVIII asr oxiridagi fransuz inqilobini o'rganilishi, N.Kareyevning tarix metodologiyasi, plyuralizmning metodologik tamoyillari, B.Chicherinning jahon tarixi konsepsiyasi.

XIX-XX asrlarda Eron tarixshunosligi

XIX asr Eron tarixshunosligida sharq tarixchilarining tutgan o'rni. Eron va Yevropa tarixchilarining ishlarida Yevropa davlatlarida Erondagi mustamlakachilik siyosati. XX asr Eron tarixiga oid fikrlar.

XIX-XX asrlarda Usmoniylar imperiyasida tarixshunoslik

Turkiyalik olimlarning ishlarida birinchi va ikkinchi jahon urushiga oid muammolar. XX asrda Kurtlar muammosi. XX asrda Turkiyani tarixshunosligi.

Misr tarixshunosligi

XIX-XX asrlardagi arab olimlari izlanishlarida XIX asr turkiya-misr munosabatlaridagi muammolari. XX asr Misr olimlarini izlanishlari.

XIX-XX asrda Afg'onistonning tarixiy fikrlari va tarix fani

Horijiy izlanuvchilarning ishlarida anglo-afg'oniston urushi ochib berilishi. XIX asr o'rtasida Eron muammosi. XX asrda Afg'oniston tarixshunosligi.

XIX-XX asrda Yaqin Sharq tarixshunosligi

Siriya tarixshunosligi Liviya, Ummon, Kuvayt va boshqa arab davlatlarining XIX-XX asrdagi tarixshunosligi. Hindiston tarixshunosligi. Xitoy, tarixshunosligi.

XX asr boshlarida tarix fani taraqqiyoti

XX asr boshida tarixiy fan ahvoli, Yevropa universitetlar tizimida tarixiy fanning o'rni, tarix fanida inqiroz, inqirozda chiqishnin metodologik yo'llarining izlanishi, K.Veberning tarixiy-sotsial konsepsiyasi, Fransiyada madaniy-tarixiy sintez yaratishga urinishlar, Rossiyada pozitivizm tanqidi.

Ikkala jahon urushi oralig'i davrida tarix fani (1918-1945)

Tarix fanining prestij darajadan tushishi, Markaziy Yevropadagi yangi davlatlarda milliy tarixshunoslik maktablarining shakllanishi, yevrosentrizmning inkor qilinihsi, tarixiy jarayonlarning global sikl nazariyasining yaratilishi, O.Shpenglerning madaniy-tarixiy dunyo nazariyasi, A.Toynbining tamaddunlar nazariyasi, imperialism muammolari.

Sovet tarixshunosligining shakllanishi

An'anaviy tarixshunoslik makatablariga siyosiy rejimning ta'sir ko'rsatishi, tadqiqot jarayonlarining nazorat qilishi, liberal tarixchilarning qarshiligi, "ichki emigratsiya", tarix fanida totalitar rejimga pragmatik yondoshuv bo'yicha vazifalar, totalitarizm nazariyasining shakllanishi va uning tarixiy tadqiqotlarda qo'llanilishi.

1918-1945-yillarda fransuz tarixshunosligi

"Annallar" maktabining tuzilishi, global tarixning tuzilishi, XVIII asr oxiridagi va 1848-yilgi fransuz inqilobini o'rganilishi, A.Olar maktabining qulashi, J.Joresning radikal-respublika yo'nalishining jonlanishi, tarixshunoslikda sotsial g'oya, Birinchi jahon urushi tarixi muammolari va P.Renuven maktabining shakllanishi, siyosiy fanlar rivoji va uning tarixiy maktablar bilan o'zaro aloqalari.

Buyuk Britaniyada tarix fanining rivojlanishi (1918-1945)

Tarixiy fan tashkiloti, uning asosiy yo'nalishlari, R.Kollingvud va uning pozitiv metodologiya tamoyillari tanqidi, L. Nemir va uning Buyuk Britaniyaning

XVII-XVIII asrlar parlament-siyosiy tarixi maktabi, sotsial va iqtisodiy tarixning rivojlanishi, leyboristlar tarixshunosligida tred-yunionlar va ishchilar harakati muammolari.

1918-1945-yillarda Germaniyada tarixshunoslik

Konservatik tarixchilar va ularning Veymar Respublikasi bilan munosabatlari, I. Gallerning ishlarida Prussiya g'oyalari, I. Sikursh XIX asr german tarixi muammolari haqida, radikal-demokratik yo'nalish, Yangi Germaniya imperiya tarix institutining yaratilishi, "xalq tarixi" antimodernizatsiya yo'nalishi.

AQSh tarix fanida progressiv maktablar (1918-1945)

Progressiv maktablarning rivojlanishi, Ch.Bird asarlarida Amerika va dunyo tamaddunining birligi haqidagi konsepsiya, Birinchi jahon urushining amerika tarixshunosligi, AQSh tarixshunosligi so'lradikal va marksistik yo'nalish, "imperiya maktabi", AQSh tashqi siyosati va diplomatiyasi tarixshunosligining asosiy tamoyillari.

1918-1945-yillarda Italiya tarixshunosligi

Fashistlar rejimi davrida tarixiy fanning birlashuvi, Markaziy tarixiy tadqiqot markazining yaratilishi, Italiya tarixida fashizmning o'rni, antifashist tarixshunosligining shakllanishi, B.Kroche ishlarida liberal an'analarning davom ettirilishi, iqtisodiy-huquqiy maktab, K.Rosellining liberal sotsializmi, A.Gramshining "Qamoqxona daftarlari" va uning Italiya tarixshunosligidagi o'rni.

XX asr ikkinchi yarmi-XXI asr boshlarida tarixshunoslik

Rivojlanishning umumiy tamoyillari, 1960-70-yillarda "yangi tarixiy fan"ning gullab-yashnashi, Gender tarixining shakllanishi, "yangi tarixiy fan"ning kamchiliklari, sotsiomadaniy tarixning asosiy yo'nalishlari, tarixshunoslikdagi antropolgik burilish, yangi madaniy tarixning qaror topishi, gender tarixning gullab-yashnashi, zamonaviy tarixshunoslikda postmodernizmning yoyilishi, umumyevropa tarixshunosligining yuzaga kelishi.

Rossiyada tarix fani taraqqiyoti

Tarix fanining asosiy rivojlanish bosqichlari, xalqaro ishchilar va kommunistlar harakatlari tarixini o'rganish, tarixchilarning kosmopolitizmga qarshi kurash kompaniyasi, "iliqlik" davri tarixshunosligi, urush yillaridan so'ng vatan tarixshunosligida amerikanistikaning rivojlanishi, "qayta qurish" yillarida Rossiya tarixshunosligida yangi tendensiya va qarashlarning shakllanishi, fuqarolik tarixiy ongi shakllanishida yangi va eng yangi tarixning o'rni, 1990-yillarda "arxiv inqilobi"ning boshlanishi, asrlar chegarasida yangi va eng yangi tarixni o'rganish bo'yicha vatan tarixshunosligidagi asosiy yo'nalishlar va mavzular, xalqaro munosabatlarni o'rganish borasida rus tarixchilarining zamonaviy qarashlari.

AQSh tarix fanidagi o'zgarishlar

Tarixiy fanning falsafiy-nazariy va metodologik asoslarining o'zgarishi, neoliberal yo'nalish, radikal-demokratik yo'nalishning vujudga kelishi, klassik siyosiy realizmning vujudga kelishi va uning tarixiy fanidagi o'rni, yangi iqtisodiy siyosatning asosi, yangi sotsial tarix, yangi ishchi tarix, yangi siyosiy tarix, tarixiy antropoliya va madaniyatshunoslikning yoyilishi, gender tarixining rivojlanishi, yangi iqtisodiy fanning o'ziga xos belgilari, AQSH tashqi siyosati tarixshunosligi

Fransiya tarixshunosligida yangicha fikrlash va "yangi tarix fani"

"Tarixshunoslik inqilobi", Annalar maktabining ikkinchi avlodi, E.Lyabrussning sotsial-iqtisodiy tarixni o'rganish maktabi, fransuz inqilobi haqida baxslar, poststrukturalizm, tarixiy demografiya rivoji, tarixiy antropologiya, Annalar maktabining uchinchi avlodi, tarixiy-nazariy yo'nalish, siyosiy madaniyat tarixi, mahalliy tarix.

Britaniyada tarixshunoslik: yangi ijtimoiy tarix

Nazariy-metodologik izlanishlar, xristian tarixshunosligi, yangi sotsial tarix, XVII asrdagi ingliz inqilobini o'rganish muammolari, Buyuk Britaniya tashqi siyosati tanqidiy konsepsiyasi, milliy-sotsializm tarixi bo'yicha taqqiqotlar, 1980-yillarda idiografizm va narrativlikning yuzaga kelishi, gender izlanishlardagi evolyutsiya, xalqaro munosabatlar tarixi tarixshunosligidagi "ingliz maktabi".

GFR va birlashgan Germaniyada tarixshunoslik

Getler diktaturasining ilk baholari, 1950-yillarda konservativ yo'nalish maktabining hukmronligi, G.Ritter ishlari, F.Fisher va birinchi jahon urushi masalasi, 1960-yillarda GFR tarixshunosligida neoliberal yo'nalishning ustunligi, yangi ijtimoiy tarix, sotsial-demokratik tarixshunoslik, neotarixchilik prinsiplarining qayd etilishi, GDRda tarixiy fan rivoji, 1980-yillarda GFR tarixchilarining bahslari, GFR tarixshunosligida antropologik burilish, birlashuvdan keyin tarixchilar uchun yangi sharoitlar, GDR tarixini o'rganilishi.

Italiya tarixshunosligidagi asosiy yo'nalishlar

Asosiy tarixshunoslik yo'nalishlari va maktablari, tadqiqot muammosi ko'lamining kengayishi, fundamental tadqiqotlar, Risorjementoning sotsial-iqtisodiy aspektlari, Janub tarixi muammosi, Fashizm tarixini tadqiq etishning rivojlanishi, sotsimadaniy tarixning yoyilishi, 1980-yillarda mahalliy tadqiqotlarning kengayishi, fashizm haqida yangi baxslar.

Boshqa horijiy davlatlar tarixshunosligi

Vengriya tarix fani. Chexiya va Ruminiya tarixshunosligi. Bolgariya, Yugoslaviya va Ispaniya tarixshunosligi.

Statistik ma'lumotlar yangi zamon tarixi manbalari

Statistika fan sifatida. Bu atamaning mahiyati. Statistika asoslari. Statistikaning tarixiy bilimlarda qo'llanilishi. Statistik manbalar va statistik uslublarning tarixshunoslikdagi o'rni. Ijtimoiy – iqtisodiy tarixni o'rganishda statistika. Statistika va siyosiy tarix. Sinfy va siyosiy kurashni o'rganishda statistika. Statistika tashkilotlarining Yevropa va Amerika mamlakatlaridagi faoliyati. Xalqaro statistika. Statistik komissiyalar. Xalqaro statistik anjumanlar. Statistik yilnomalarning nashr etilishi. Statistik tadqiqotni tashkil etish. Statistik tadqiqot uslublari. Statistik kuzatish: karraviy va doimiy, yoppasiga va qisman. Statistik ma'lumotlarning manbashunoslik tahlili. Statistikada ro'y berishi mumkin bo'lgan xatoliklar.

Davriy matbuot va memuar asarlar manba sifatida

Davriy matbuotning paydo bo'lishi. Qisqa xabar (xronika). Yilnomalar. Davlat rasmiy gazetalarining paydo bo'lishi. Feodal va absolyutik tuzum davrlarida matbuot. Burjua inqiloblarining matbuotga ta'siri. Matbuotdagi ikki tendensiya. Gazetalar janri. Gazetalarning mushtariylarga ta'sir etish qudrati. Davriy jurnal. Matbuotning qayta nashri. Nashriyot arxiv hujjatlari. Matbuot to'g'risidagi ilmiy – ma'lumotnoma adabiyotlar. Matbuot ma'lumotlarini manbashunoslik tahlili. Tarixni o'rganishda xotira manbalarining o'rni. Memuaristika turlari. Chop etilgan va chop etilmagan memuar manbalar. Memuar adabiyotlaridagi asosiy xususiyatlar. Esdaliklar va kundaliklarni o'rganish uslublari, ularni ilmiy, manbashunoslik asosida tahlil etilishi.

Rasmiy diplomatik hujjatlarning manbaligi

Diplomatiya tushunchasi, uning lug'aviy ma'nosi. Diplomatik xizmatning paydo bo'lishi. Diplomatik xizmatning yangi va eng yangi zamon davrida tashkil etilishi. Diplomatik vakolatlik. Elchilik. Favqulodda va muvaqqat tuziladigan hukumat vakolatligi. Diplomatik hujjatlarning tarkibi. Xalqaro shartnomalar tuzilishining uchta asosiy qismi. Hujjatlarning tasdiqlanishi (ratifikasiya). Diplomatik hujjatlar: nota va uning turlari. Memorandum, eslatuvchi varaqa, rasmiy yozishmalar. Yangi va eng yangi zamon davri diplomatik hujjatlarning nashr etilishi. Nashr etilgan diplomatik hujjatlarning o'ziga xos xususiyatlari. Hujjatlardagi obyektivlik va uning aksi. Burjua va materialistik dunyoqarash ruhida chop etilgan hujjatlarning qiyosiy taqqoslanishi. Diplomatik hujjatlarni o'rganish usullari. Diplomatik hujjatlarning manbashunoslik tahlili. Diplomatik hujjatlarda mavjud bo'lishi mumkin bo'lgan xato –kamchiliklar, ularni aniqlash

usullari. Hujjatlarni taqqoslash va bu sohada e'tibor berilishi lozim bo'lgan uch bosqich.

IV. Seminar mashg'ulotlarni tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Seminar mashg'ulotlarida magistrantlar "Yangi va eng yangi davr tarixi tarixshunosligi va manbashunosligi: rivojlanishning asosiy yo'nalishlari" fanidan ma'ruza darslarida olgan nazariy bilimlarini mustahkamlash bilan birga, seminarlar mavzulari bo'yicha tayyorgarlik ko'rish jarayonida qo'shimcha adabiyotlar va tarixiy manbalar bilan tanishish orqali qo'shimcha bilim oladilar. Natijada ularning bilim doiralari ilmiy jihatdan asoslangan holda kengayadi.

"Yangi va eng yangi davr tarixi tarixshunosligi va manbashunosligi: rivojlanishning asosiy yo'nalishlari" fani bo'yicha seminar mashg'ulotlarining tavsiya etiladigan mavzulari:

1. XVII asringliz inqilobi tarixshunosligi
2. Shimoliy Afrikada mustaqilik uchun urushning tarixshunosligi
3. XVIII-XIX asrlar German tarixshunosligi
4. Fransiya konsullik va birinchi imperiya davri tarixshunosligi
5. Birinchi jahon urushi tarixshunosligi
6. Ikkinchi jahon urushi tarixi davrida Yevropa tarixiy va ijtimoiy fikri
7. M.M.Kovalevskiyning XVIII asr fransuz inqilobi haqidagi asarlari

I.V.Luchiskiy

8. XX asrda AQSh tarixshunosligi
9. Polsha tarixshunosligi.
10. Chexiya va Ruminiya tarixshunosligi.
11. Lotin Amerikasi mamlakatlarining milliy tarixshunosligi.
12. Reaksion romantizm va uning tarixshunoslikka ta'siri.
13. Dvoryan-monarxlari tarixshunosligi.
14. Eron tarixshunosligi.
15. Bolgariya tarixshunosligi
16. Afg'oniston tarixshunosligi.
17. Yugoslaviya tarixshunosligi
18. Rus tarixchilarining yangi davr bo'yicha ilk asarlari.
19. Ispaniya tarixshunosligi
20. Sovet tarixshunosligi.
21. Hindiston tarixshunosligi
22. Xitoy tarixshunosligi
23. Monarxiya adabiyotida Restavrasiya tizimining ideallasuvi.
24. Diplomatik hujjatlar
25. Diplomatik hujjatlar: nota va uning turlari
26. Esdaliklar va kundaliklarni o'rganish uslublari, ularni ilmiy, manbashunoslik asosida tahlil etilishi
27. Davlat rasmiy gazetalarining paydo bo'lishi
28. Statistika ma'lumotlarning manbashunoslik tahlili

29. Statistikaning tarixiy bilimlarda qo'llanilishi

30. Statistik manbalar va statistik uslublarning tarixshunoslikdagi o'rni

Izoh: Ishchi fan dasturini shakllantirish jarayonida ishchi o'quv rejada mazkur seminar mashg'ulot uchun belgilangan soat hajmidan tashqari soatlar hajmiga mos mavzular tanlab belgilanadi.

V. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'limdan ko'zlangan maqsad va vazifalar – bu talabalarda mustaqil bilim olish ko'nikmalarini shakllantirishdan iborat.

Mustaqil ta'lim seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik ko'rishdan tashqari fan dasturida ko'rsatilmagan, ammo fan bo'yicha talabaniq bilim doirasini kengaytiruvchi qo'shimcha mavzular doirasida berilgan topshiriqlarni bajarishni o'z ichiga oladi.

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. XVII-XVIII asrlar Sharqiy Yevropa tarixshunosligi
2. XVIII-XIX asrlar Italiya tarixshunosligi
3. XVII-XIX asrlar Avstriya tarixshunosligi
4. XIX asr oxiri – XX rus tarixshunosligi
5. XX asrning 2-yarmida Amerika tarixshunosligi
6. XX asrning ikkinchi yarmi g'arbiy Yevropa tarixshunosligi
7. XX asrning ikkinchi yarmi sharqiy Yevropa tarixshunosligi
8. XX asrning 2-yarmida rus tarixshunosligi
9. XX asrning 2-yarmida Italiya va Ispaniya tarixshunosligi
10. XVII-XVIII asrlar Sharqiy Yevropa manbashunosligi
11. XVIII-XIX asrlar Italiya manbashunosligi
12. XVII-XIX asrlar Avstriya manbashunosligi
13. XIX asr oxiri – XX rus manbashunosligi
14. XVII-XVIII asrlar G'arbiy Yevropa manbashunosligi
15. XVII-XVIII asrlar Ispaniya manbashunosligi
16. XVII-XVIII asrlar AQSh manbashunosligi

Izoh: Fan ishchi dasturini shakllantirish jarayonida mazkur mashg'ulot uchun ishchi o'quv rejada ko'rsatilgan soatlar hajmiga mos mavzular ro'yxati shakllantiriladi.

VI. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar va axborot manbalari **Asosiy adabiyotlar**

1. Историография истории нового времени стран Европы и Америки. Под ред. проф. И.П.Дементьева - М.: Изд-во МГУ, 1990.

2. Историческая наука в XX века. Историография истории нового и новейшего времени стран Европы и Америки. Под ред. проф. И.П.Дементьева и проф. А.И. Патрушева. – М.: Изд-во МГУ, 2002.
3. Историография новой истории стран Азии и Африки. – М, 2000
4. Историография новейшей истории стран Азии и Африки. – М, 2001

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Мирзиёев Ш.М. Танқидий таҳлил, қатъий тартиб-интизом ва шахсий жавобгарлик – ҳар бир раҳбар фаолиятининг кундалик қонидаси бўлиши керак. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил яқунлари ва 2017 йилга мўлжалланган иқтисодий дастурнинг энг муҳим устувор йўналишларига бағишланган Вазирлар Маҳкамасининг кенгайтирилган мажлисидаги маъруза. Т.: “Ўзбекистон”. 2017.
2. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови. Т.: “Ўзбекистон”. 2017.
3. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажакимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга кўрамиз. Т.: “Ўзбекистон”. 2017.
4. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. Ўзбекистон Республикаси Президенти лавозимига киришиш тантанали маросимига бағишланган Олий Мажлис палаталарининг қўшма мажлисидаги нутқ. Т.: “Ўзбекистон”. 2016.
5. Источниковедение новой истории зарубежных стран. – М., 1986
6. История нового времени стран Европы и Америки. – М., 1967
7. Вайнштейн О.Л. Западноевропейская средневековая историография. Ч.П., - М.-Л., 1964.
8. Кон И.С. Политические воззрения Джона Мильтона. «Уч.зап. Вологодского гос. Пед.ин-та», 1961., Т.9.
9. Левин Г.Р. Памфлеты Лильберна, Овертона и Уолвина 1645-1647. «Уч. Зап. Вологодского гос. Пед ин-та», 19442, Вып. 3.
10. Плеханов Г.В. Жан-Жак Руссо и его учение о происхождении неравенства между людьми. Соч., Т. 18, М.-Л., 1925.
11. Алпатов М.А. Политические идеи французской буржуазной историографии XIX в. – М.-Л., 1949.
12. Волгин В.П. Развитие общественной мысли во Франции в XVIII в. – М., 1958.
13. Косминский Е.А. Вольтер и историческая наука. М., 1945.
14. Жан-Поль Марат: избранные произведения. Т. 1. М., 1956.
15. Штейн В.М. Адам Смит. Личность и учение. –СПб., 1923.
16. Меринг Ф. Легенда о Лессинге. –М., 1934.
17. Гулыга А.В. Гердер.- М., 1963.

18. Мошковская Ю.Я. Георг Форстер – немецкий просветитель и революционер XVIII в. (1754-1792).- М., 1961.
19. Белявская И.А. Франклин – деятель национально-освободительного движения американского народа. – «Вопросы истории», 1956, № 10.
20. Паррингтон В.Л. Основные течения американской мысли. – М., 1962.
21. Белявский М.Т. М.В. Ломоносов и русская история. «Вопросы истории» 1961.
22. Черепнин Л.В. Русская историография до XIX в. - М., 1957.
23. Алпатов М.А. Политические идеи французской буржуазной историографии XIX в. – М., 1949.
24. Вендракова Л.А. Луи Блан как историк. – М., 1957.
25. Волгин В.П. Сен-Симон и сенсимонизм. – М., 1961.
26. Кареев Н.И. Историки французской революции. ТТ. 1,2 - Л., 1964.
27. Реизов Б.Г. Французская Романтическая историография (1815-1830). –Л., 1956.
28. Богомолов А.С. Идея развития в буржуазной философии XIX и XX вв. - М., 1962.
29. Мелешенко З.Н. Из истории идейно-философской борьбы за единство Германии в XVIII и начале XIX вв. - Л., 1958.
30. Милицина Т.В. Историография французской революции XVIII в.- М.-Л., 1971.
31. Данилов А.И. Немецкие буржуазные историки либерального направления во время 1 мировой войны и революции 1918-1919 гг. – М., 1958.
32. Кан С.Б. Немецкая историография революции 1918-1949 гг. в Германии. – М., 1962.
33. Габриэлян С.И. Янги ва энг янги тарих тарихшунослиги ва машбашунослиги. Ўқув-услубий мажмуа. Университет 2011.

Elektron adabiyotlar

1. [http:// grid, rug.nl /ahc/](http://grid.rug.nl/ahc/)
2. [http:// Librory. Byu. edu/-rdh/eurodocs/](http://Librory. Byu. edu/-rdh/eurodocs/)
3. [http:// history.hanover,edu/texts.htm](http://history.hanover,edu/texts.htm)
4. [http:// www.ucr.edu/h-gig/horuslinks.html](http://www.ucr.edu/h-gig/horuslinks.html)
5. [http:// english www. hss. cmu. edu/history](http://english www. hss. cmu. edu/history)
6. [http:// www.ukans.edu/history/vl/](http://www.ukans.edu/history/vl/)
7. [http:// www.lib.muohio.edu/inet/subj/history/wwii/index.hrml](http://www.lib.muohio.edu/inet/subj/history/wwii/index.hrml)
8. [http:// www.lib.byu.edu/-rdh/wwl/](http://www.lib.byu.edu/-rdh/wwl/)
9. [http:// classics.mit.edu](http://classics.mit.edu).
10. [http:// www.washlaw.edu/forint/](http://www.washlaw.edu/forint/)
11. [http:// www.yole.edu/Lawweb/avolon.htm](http://www.yole.edu/Lawweb/avolon.htm)

